

**BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHLARINI
REJALASHTIRISHNING MAZMUNI**

Muzaffar Usmanov
**Andijon viloyati Paxtaobob tumani 39-
maktabning geografiya fani o’qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishning mazmuni va pedagogik asoslari asoslari yoritilgan. Shu bilan birga, tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy shakllari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Tabiat bilan tanishtirish, ta’lim va tarbiya jarayoni, reja, yullik reja, istiqbol reja, o’yin.

Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo’g’ini bo’lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog’ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida to’qqiz banddan iborat vazifalar yuklatilgan. Shunday ekan, sog’lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish maktabgacha ta’lim tizimida mexnat qilayotgan pedagogning saviyasi, tayyorgarligi va fidoyiligi, yosh avlodni tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liqdir. Tarbiyachining mustakillik g’oyasiga e’tiqodi har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiga doir tegishli ma’lumotga, ya’ni o’z kasbining chukur bilimdoni, pedagogik mulokot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo’lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o’rganishi va baholay olishi, pedagogik ta’sir ko’rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish kobiliyatiga ega bo’lishi lozim.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishdagi asosiy ko’llanma, manba «Bolalar bog’chasida ta’lim tarbiya dasturi» xisoblanadi. Bunda umumpedagogik qoidaga va rejalashtirish prinsiplariga amal qilinadi. rejalashtirishning asosiy prinsipi bola shaxsini aqlan, ahloqan shakllantirib, ularda tabiatga doir bilim, malaka va ko’nikmalar hosil qilish tabiatga nisbatan ilmiy nuqtai nazardan qarash buyicha oddiy tushunchalar berish, tabiatda kattalar mexnatini xurmat qilish va uni kadrlash, o’simlik va xayvonlarni sevish xamda asrash ruxida ta’lim berishdan iboratdir. Buni amalga oshirish uchun pedagogik tarbiya ishlari turli rejalashtirilgan bo’lishi, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim- tarbiya berish, malaka va ko’nikmalar xosil qilinishi, bunda turli-tuman ta’lim-shakllari va bolalar faolligi xisobga olingan bo’lishi lozim. Reja aniq tizim asosida izchillik bilan oddiydan murakkabga qarab bir-biri bilan bog’liq turli uslub va shakllardan iborat bo’lishi kerak. Rejalashtirishning bosh maqsadi «Bolalar bog’chasining ta’lim tarbiya dasturini» to’liq amalga oshirishdir.

Yillik reja umumiy vazifani qamrab olib, butun pedagogik jamoaning maqsadini o’ziga mujassamlashtiradi. Ana shulardan biri tabiat bilan tanishtirish ishini maqsadga muvofiq tashkil qilishdir. Yillik rejada tarbiyachi bilan birga tabiat bilan tanishtirishning uslubiy ish shakllari rejalashtiriladi. Bunda pedagogik majlislarning mazmuni tabiat bilan tanishtirish soxasidagi ilgor tarbiyachilarning ish tajribalarini yoyish va ularni to’plash imkonlari (mashg’ulot kuzatish, uni muxokama qilish, ekskursiya va xokozolar). Rejada tabiatshunoslik harakteridagi, uslubiy mavzularidagi topshiriqlar, yo’llanmalar o’tkazish rejalashtiriladi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Yillik reja ota-onalar bilan tabiatni muxofaza qilishga doir pedagogik tashviqot-targ‘ibot ishlari borish ham kiritiladi.

Istiqbol rejalari bir gurux uchun tuziladi. Uni yil fasllari bo‘yicha tuzish maqsadga muvofiq. Chunki bu tabiatning rang-barang xususiyatlarini xisobga olish va tabiat xodisalari bilan bolalarni tanishtirishga imkon yaratadi. Istiqbolli reja tarbiyachiga dastur materiallarini taqsimlashga yordam beradi. U bolalar bilimini, malaka va ko‘nikmalarini ma’lum tizim asosida izchillik bilan borishini ta’minlaydi. Rejada jonsiz tabiat xaqidagi bilim, o‘simliklar xaqidagi bilim, xayvonlar xaqidagi, tabiatda kattalar mexnati xaqidagi ma’lumotlar kiritiladi. Rejada tabiat burchagiga quyilgan vaqtincha va doimiy yangi obyektlar xam kiritilishi kerak. Bularni avvaldan aniqlashtirishdan maqsad, o‘simlik va xayvonlar uchun ovqat, sharoit tayyorlab qo‘yishdir. Rejada ta’limiy o‘yinlar, kinofilm va diafilmlar, tabiatga doir adabiyotlar, tarbiyachilar uchun tabiatda oid lug‘at va adabiyotlari kiritiladi. Istiqbolli rejada bolalarning yer maydonchasi va tabiat burchagida bajaradigan mexnatlari o‘z ifodasini topadi. Bu ishlarni oldindan rejalashtirishdan maqsad zarur mexnat asboblari sharoitini oldindan tayyorlab qo‘uyishdir. Asosiy kuzatish jonli va jonsiz, tabiatda kishilar mexnatini fasllar bo‘yicha o‘zgarishini aniqlashdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy shakli - kundalik ish rejasini tuzishdir. Bu reja yilning har xil faslini uz ichiga oladi. Yosh tarbiyachilar bajaradigan ishlarini 2 haftaga tuzib olishlari maqsadga muvofiqdir.

Kundalik rejani tuzishda mashg‘ulot utishningrejalashtirishdan boshlash lozim. Mashg‘ulot - dastur mazmuni bulgan tabiat bilan tanishtirish ishini kunlik xayotda amalga oshirish va tabiatshunoslik ishining asosiy shaklidir. Kundalik rejada tabiat burchagidagi; kuzatish va mexnatning asosiy mazmuni o‘z aksini topishi kerak. Rejada kuzatishning maqsadi va kuzatish yullari va kuzatilgan obyektning natijalarini taxlil qilish xam kundalik rejada tabiat materiallari asosida harakatli o‘yinlarni bajarish xam kayd etiladi. Bajarish uchun kandy jixozlar zarurligi aniqlanadi. Tabiatshunoslikka doir ta’limiy o‘yinlardan foydalanishda ularning shakli, mazmuniga karab ishlatish rejalashtiriladi. Tabiatshunoslikka oid ishlarni rejalashtirganda har bir yosh guruxning xususiyati xisobga olinib, ularning asosiy shakllaridan foydalanilib tabiat bilan tanishtirish uslublari asosida tuziladi. Tarbiyachi bajarilgan ishni kundalik ish rejasida xisobga olib boradi.

Mashg‘ulot rejasi kalendar ish rejaga mos kelishi kerak. Didaktik o‘yinlarda bolalar o‘zlarida tabiat dagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o‘simliklar haqida mavjud bo‘lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko‘pgina o‘yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o‘rgatadi.

Didaktik o‘yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘shishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o‘rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug‘atni boyitadi, bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stolbosma va og‘zaki didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Tabiatga oid o‘yinlarni o‘rganish barcha didaktik o‘yinlar uchun umumiy bo‘lgan qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Kichik yosh guruhlarda dastlabki bosqichlarda tarbiyachi o‘yinni bolalar bilan birga o‘ynaydi, o‘yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiy oq tadbiq qiladi. Takroriy o‘yinda esa qo‘shimcha qoidalarni aytabdi. Ikkinchi bosqichda tarbiyachi o‘yinda faol qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o‘yinni boshqarib turadi.

Xulosa o‘rnida shunga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida dolzarb ahamiyat kasb etgan. Kishilarda, shu jumladan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish aniq psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni, maxsus tashkiliy-pedagogik jihatlarni hisobga olishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentabr, O‘RQ-637-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan. Toshkent. sh., 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.
3. Nishonova N. Adabiy ta’lim va ekologik madaniyatni shakllantirish: Adabiyot va ekologik tarbiya / Til va adabiyot ta’limi. –T.: 2000. - № 1.
4. To‘xtaev A.S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 2001.
5. www.tdpu.uz, www.pedagog.uz, www.ziyonet.uz, www.i-gnom.ru.